

O‘simliklarning jinsiy ko‘payishi

Mirraximova Nilufar Mirraxmon qizi
Andijon Davlat Pedagogika Instituti
Tabiiy fanlar fakulteti Biologiya yo‘nalishi
101-guruh talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada jinsiy ko‘payish jarayoni va uning biologik ahamiyati haqida so‘z yuritiladi. Gametalar qo‘shilib, zigota hosil bo‘lishi orqali yangi individlarning shakllanishi va genetik xilma-xillik yaratilishi ko‘payish jarayonining asosiy xususiyati sifatida ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: O‘simlik, zigota, jinsiy ko‘payish, gametalar, tuban o‘simliklar

Har bir o‘simlik nasl qoldirish uchun harakat qiladi. Lekin har vaqt ham o‘ziga o‘xshagan individ yarata olmaydi. O‘simliklar asosan jinssiz (vegetativ) va jinsiy yo‘llar bilan ko‘payadi. Vegetativ ko‘payishda genotipning irsiy belgilari avlodlarda o‘zgarmaydi (1).

Jinsiy ko‘payish deb ko‘payishning shunday tipiga aytiladiki, bunda yangi individlar ikki jinsiy hujayra - gametalarning qo‘shilishi va zigotalarning hosil bo‘lishidan paydo bo‘ladi. Bunda gametalarning sitoplazmasi va yadrolari qo‘shiladi, lekin qo‘shilgan yadrolar xromosomalari o‘zlarining individualligini saqlab qoladi hamda zigota yadrosi gametalar yadrosining gaploid yig‘indisi xromosomalaridan farqli ravishda diploid xromosomalar yig‘indisiga ega.(2).

Tuban rivojlangan o‘simliklarda jinsiy ko‘payish ikkita harakatchan jinsiy hujayra gametalar (yunon. jinsiy hujayra) protoplazmasi va yadrolarining bir-biri bilan qo‘shilishi, ya’ni kopulyatsiya (lot. kopulatsio — juftlashish) natijasida vujudga keladi. Ko‘pchilik o‘simliklarda jinsiy hujayra — gameta maxsus hujayra gametangiy (yunon. angeyon — nay)da yetiladi. Tuban o‘simliklarda bir hujayrali, yuksak o‘simliklarda ko‘p hujayrali gametangiy taraqqiy etadi. Gametalar yetilgandan so‘ng gametangiy devori bo‘rtib yirtiladi va suvga chiqadi. Suvda har xil tupdan chiqqan gametalar bir-biri bilan uchrasa, ular qo‘shiladi va zigota hosil qiladi. Zigota ichida avvalo gametalarning sitoplazmasi (protoplazmasi) qo‘shiladi, bunga plazmogamiya deb ataladi, keyinchalik ularning yadrolari qo‘shiladi — bunga kariogamiya deb ataladi. Zigota tinchlik davrini o‘tgandan so‘ng, uning diploid (yunon. diploos —

qo‘shaloq) yadrosi reduktsion (meyoz) bo‘linib, xromosomalari soni ikki barobar kamayadi. Shundan so‘ng gaploid davr boshlanadi. O‘simliklarda bir necha xil gametalar bo‘ladi, shunga ko‘ra bir necha xil jinsiy ko‘payish uchraydi.(3)

Xulosa:

Jinsiy ko‘payish organizmlarda genetik xilma-xillikni yaratib, ularning rivojlanishi va moslashuvchanligini ta‘minlaydi. Gametalarning qo‘shilib, diploid zigota hosil qilishi orqali har bir individ o‘ziga xos genetik xususiyatlarni oladi. Bu jarayon nafaqat yangi avlod paydo bo‘lishiga, balki tur doirasidagi genetik mustahkamlikka ham xizmat qiladi. Shu tariqa, jinsiy ko‘payish nafaqat ko‘payish, balki evolyutsion barqarorlikning ham poydevorini tashkil qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

- 1.Pratov. O‘ „Botanika" Toshkent 2010, 49-bet
2. Dariyev A.S, Madumarov. T.A, Ro‘zmatov E.Y. „Botanika” Toshkent 2012 221-bet
- 3.Ikromov.M.I, Normurodov H.N, Yuldashev A.S. „Botanika” Toshkent 2002, 237-bet.

**Research Science and
Innovation House**